

VI. TARAFLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MA`SULIYAT.

- 6.1. Taraflar shartnoma shartlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun talablariga so'zsiz amal qiladi.
- 6.2. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan holda, ushbu shartnoma doirasida qonun buzilishga olib keladigan harakatlar(harakatsizlik)ga yo'l qo'ymarydilar.
- 6.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish barobarida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar:
- pora berish, shuningdek ushbu jinoyatga vositachilik qilish;
 - tovlamachilik, yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan pora olishga undash;
 - pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish.
- 6.4. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari rag'batlantirishning har qanday shaklini rad etadilar. jumladan:
- taraflarning xodimlari yoki vakillaridan pul mablag'lari olish, sovg'alar berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ushbu harakat(harakatsizlik)ni amalga oshirgan xodim yoki vakolatli vakil uni rag'batlantiradigan tomon foydasiga har qanday harakatni bajarishni.
- 6.5. Taraflarga shartnoma shartlarini amalga oshirishda sun'iy ravishda ikkinchi tarafga noqulayliklar tug'dirib, korrupsiyaviy omil paydo bo'lishiga bevosita hamda bilvosita sababchi bo'lish taqiqlanadi.
- 6.6. Agar shartnoma taraflari tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilmaslik yoki ushbu shartlarning buzilish holatlari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb guman qilinganda shuningdek, shartnomaning 5.1-bandida belgilangan qoidalardan biri sodir etilganda ushbu harakat sodir yetilganligi yuzasidan ikkinchi tomonni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda shartnoma shartlari yoki qonun buzilishining inkor etilmaydigan dalillari mavjud bo'lganda, shartnoma taraflari O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlariga murojaat qiladilar.

VII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 7.1. Taraflar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.
- 7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sudda hal qilinadi.